



UDK: 821.512.133–93:821.111–93.09

**Gulshoda AVLOYOROVA,**  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
E-mail: avloyorovagulshoda@gmail.com

Xorijiy til nazariyasi va amaliyoti kafedrasida o‘qituvchisi Turon universiteti dotsenti, PhD P.Qurbonov taqrizi asosida

### O‘ZBEK VA INGLIZ BOLALAR ADABIYOTIDA MISTIK OBRAZLARNING MA’NAVYIY-TARBIYAVIY TALQINI (XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV VA SUSAN HILL ASARLARI QIYOSIDA)

Annotsatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz bolalar adabiyotida mistik obrazlarning ma’naviy-tarbiyaviy talqini qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asari hamda Syuzan Hillning “Men saroyning podshohiman” (“I’m the King of the Castle”) romani tanlandi. Tadqiqotning maqsadi ushbu asarlarda mistik obrazlar orqali ifodalangan ma’naviy-tarbiyaviy g‘oyalarni aniqlash va ularning badiiy talqinini qiyosiy jihatdan yoritishdan iborat. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mistik obrazlar bolalar adabiyotida nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki yosh avlodning ma’naviy-axloqiy qarashlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim tarbiyaviy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar:** mistika, obraz, tarbiya, talqin, adabiyot, qiyos, ramz, psixologiya, tasvir, axloq.

### SPIRITUAL-EDUCATIONAL INTERPRETATION OF MYSTIC IMAGES IN UZBEKISTAN AND ENGLISH CHILDREN'S LITERATURE (COMPARED WITH THE WORKS OF KHUDOYBERDI TOKHTABOYEV AND SUSAN HILL)

Annotation

This article analyzes the spiritual-educational interpretation of mystical images in Uzbek and English children's literature in a comparative manner. Khudoyberdi Tokhtaboyev's work "Riding the Yellow Giant" and Susan Hill's novel "I'm the King of the Castle" were chosen as the objects of research. The purpose of the research is to identify the spiritual-educational ideas expressed through mystical images in these works and to shed light on their artistic interpretation in a comparative manner. The results of the analysis show that mystical images in children's literature are not only a means of artistic depiction, but also an important educational factor serving to form the spiritual and moral views of the younger generation.

**Keywords:** mysticism, image, education, interpretation, literature, comparison, symbol, psychology, image, morality.

### ДУХОВНО-ВОСПИТАТЕЛЬНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ МИСТИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ В УЗБЕКСКОЙ И АНГЛИЙСКОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (В СРАВНЕНИИ С ПРОИЗВЕДЕНИЯМИ ХУДОЙБЕРДИ ТУКТАБОВА И СУСАН ХИЛЛ).

Аннотация

В статье проводится сравнительный анализ духовно-воспитательной интерпретации мистических образов в узбекской и английской детской литературе. Объектом исследования было выбрано произведение Худойберди Туктабаева “верхом на желтом гиганте”, а также Роман Сюзан Хилл “я король дворца”. Целью исследования является выявление духовно-воспитательных идей, выраженных в этих произведениях посредством мистических образов, и сравнительное освещение их художественной интерпретации.

**Ключевые слова:** мистика, образ, образование, интерпретация, литература, сравнение, символ, психология, образ, мораль.

**Kirish.** Bolalar adabiyoti yosh avlodning ma’naviy dunyoqarashi, estetik didi hamda axloqiy qarashlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu adabiyot turida yaratilgan asarlar orqali bolalar atrof-muhitni idrok etishni, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi farqni anglashni hamda muayyan ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirishlari mumkin bo‘ladi. Bolalar adabiyotida yaratilgan badiiy obrazlar tizimi asarning g‘oyaviy mazmunini ifodalovchi asosiy poetik vositalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, mistik obrazlar bolalar tasavvurini boyitish, ularning ruhiy kechinmalarini badiiy shaklda ifodalash hamda muayyan tarbiyaviy g‘oyalarni yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, mistik obrazlar bolalar tasavvur dunyosini kengaytiradi, ularning ichki hissiyotlarini san’at orqali namoyon etishga ko‘maklashadi, shuningdek, ma’lum bir tarbiyaviy fikrlarni yetkazishda asosiy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Bolalar adabiyotida mistik obrazlar ko‘pincha g‘ayritabiiy voqealar, sirli kuchlar yoki xayoliy qahramonlar

orqali ifoda etib beriladi. Bu kabi tasvirlar bolalar xayolotini kengaytirish bilan birga, ularda jasorat, rostgo‘ylik, hamjihatlik va adolat kabi axloqiy fazilatlarining shakllanishiga ham yordam beradi. O‘zbek bolalar adabiyotida mistik obrazlar ko‘pincha xalq og‘zaki ijodi an’analari bilan bog‘liq holda shakllangan bo‘lsa, ingliz bolalar adabiyotida ular ko‘proq psixologik va ramziy ma’noda talqin qilinadi. Shu sababli o‘zbek va ingliz bolalar adabiyotida mistik obrazlarning badiiy talqinini qiyosiy jihatdan o‘rganish ushbu obrazlarning ma’naviy-tarbiyaviy mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bolalar adabiyotining badiiy jihatlari ko‘plab adabiyotshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Peter Hant o‘zining “Bolalar adabiyotini anglash” asarida bolalar adabiyoti alohida estetik tizim ekanligini ta’kidlaydi. Olimning tadqiqotlariga ko‘ra, bolalar uchun yaratilgan asarlarda obrazlar majmuasi o‘quvchining estetik idroki va dunyoqarashini shakllantirishda

muhim rol o'ynaydi[1]. Ushbu fikrlar bolalar adabiyotidagi obrazlar tizimi asarning g'oyaviy mohiyatini ifodalashda asosiy vosita ekanligini ko'rsatib turadi. Bolalar adabiyotida fantastik tasvirlarning badiiy mohiyati Maria Nikolajeva tomonidan ham tatqiq qilingan. Olimaning "Bolalar adabiyotining yetuklik davriga kirishi" asarida fantastik ko'rinishlar qahramonlarning ichki ruhiy his-tuyg'ularini ifodalash va bolalar xayolini kengaytirish maqsadini o'taydi deb ko'rsatiladi[2]. Bu kabi qarashlar mistik obrazlarning bolalar adabiyotida ruhiy ma'no kasb etishini namoyon etib berishini kuzatishimiz mumkin. Fantastik hodisalarning badiiy tabiatini bolgar-fransuz adabiyotshunosi Tzvetan Todorov ham tahlil qilgan. Adib o'zining fantastika haqidagi "Fantastika: Adabiyot janriga strukturali yondashuv" nomli asarida, fantastik tasvirlar noreal hamda tabiiy bo'lmagan voqealar o'rtasidagi chegaraning noaniqligini aks ettirishini ta'kidlab o'tgan. Ushbu mulohaza fantastik va mistik personajlarning badiiy tuzilmasini anglab olish uchun muhim hisoblanadi. Fantastik syujetlarning tarbiyaviy mazmuni Jack Zipes tomonidan ham o'rganilgan. U o'zining "Ertaklar va subversiya san'ati" nomli kitobida, ertaklarning va fantastik voqealarning bolalarning axloqiy tushunchalarini shakllantirishda ahamiyatli ekanligini alohida to'xtalib o'tgan.

O'zbek adabiyotshunosligida ham bolalar adabiyotining badiiy xususiyatlari yuzasidan muhim ilmiy qarashlar ilgari surilgan. Misol tariqasida shuni aytib o'tishimiz joizki, o'zbek adabiyotshunosi Baxtiyor Karimov o'zining "O'zbek bolalar adabiyoti" nomli tadqiqotida bolalar adabiyotida obrazlar tizimi asarning g'oyaviy mazmunini ochib beruvchi muhim badiiy vosita ekanligini ifoda etadi. Olim bolalar uchun yaratilgan asarlarda obrazlar orqali muallif muayyan axloqiy va ma'naviy g'oyalarni o'quvchiga ta'sirchan tarzda yetkazib bergan.

Bundan tashqari, adabiyotshunos olim Qozoqbov Yo'ldoshev "Badiiy tahlil asoslari" hamda "Adabiyotshunoslikka kirish" asarlarida badiiy obraz voqelikni estetik talqin qilishning asosiy shakllaridan biri ekanligini qayd etadi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, badiiy obraz orqali muallif voqelikni nafaqat tasvirlaydi, balki unga muayyan g'oyaviy va estetik baho ham beradi. Ushbu qarashlar bolalar adabiyotida mistik obrazlarning ham badiiy hamda tarbiyaviy mazmuni ifodalovchi muhim poetik vosita ekanligini anglashga yordam beradi.

Yuqoridagi tadqiqotlarni ko'rib chiqish orqali bolalar adabiyotida fantastik va mistik obrazlar masalasi ma'lum darajada o'rganilganini ayta olamiz. Biroq mistik obrazlarning ma'naviy-tarbiyaviy talqini, ayniqsa o'zbek va ingliz bolalar adabiyoti misolida qiyosiy jihatdan yetarli darajada yoritilmagan. Shu sababli ushbu maqolada mazkur masalani qiyosiy nuqtai nazardan ko'rib chiqish maqsad qilindi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotni olib borishda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, qiyosiy-tipologik metod asosida turli adabiy muhitga mansub asarlarda uchraydigan mistik obrazlarning badiiy xususiyatlarini o'zaro taqqoslab ko'rib chiqishga harakat qildik. Ushbu metod yordamida mistik obrazlarning talqini hamda ularning ma'naviy-tarbiyaviy mazmunidagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlashga e'tibor qaratildi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida badiiy tahlil metodidan foydalanildi. Bu metod orqali asarlarda uchraydigan mistik obrazlarning syujet rivojidadagi o'rni, qahramon xarakterini ochib berishdagi funksiyasi hamda ularning g'oyaviy mazmuni ifodalashdagi ahamiyatini tahlil qilishga harakat qilindi. Tavsifiy metod yordamida esa mistik obrazlarning badiiy xususiyatlari hamda ularning ramziy va ma'naviy mazmuni izohlab berildi. Bundan tashqari, tadqiqot davomida analitik yondashuvdan ham foydalanildi. Ushbu yondashuv orqali badiiy matnda

qo'llanilgan mistik tasvirlarning mazmuniy qatlamlari hamda ularning ma'naviy-tarbiyaviy funksiyasi tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida olingan natijalarni umumlashtirish uchun tahliliy va umumlashtiruvchi metodlardan foydalanildi. Ushbu metodlar asosida mistik obrazlarning bolalar adabiyotidagi badiiy va tarbiyaviy ahamiyati haqida muayyan ilmiy xulosalarga kelish imkoniga ega bo'ldik.

**Tahlil va natijalar.** Adabiyotlar tahlilida qayd etilganidek, bolalar adabiyotida mistik yoki sirli tasvirlar ko'pincha muayyan tarbiyaviy g'oyalarni badiiy shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Tanlangan asarlarni tahlil qilish jarayonida ham mistik obrazlarning bolalar dunyoqarashiga ta'siri turli epizodlar orqali namoyon bo'lishini kuzatishimiz mumkin.

Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asarida fantastik va mistik tasvirlar ko'proq qiziqarli sarguzashtlar orqali berilgan bo'lsa-da, ular muayyan tarbiyaviy mazmuni ham o'zida mujassam etadi. Asarda bosh qahramonning g'ayritabiiy voqealarga tez ishonib ketishi orqali bolalarga xos soddalik va ishonuvchanlik tasvirlanadi. Qahramon dev bilan bog'liq sarguzashtlarga kirib borarkan, u ko'pincha vaziyatni chuqur o'ylamasdan harakat qiladi[3]. Ana shu epizodlar orqali muallif o'quvchini har qanday mo'jizaga ko'r-ko'rona ishonish emas, balki voqealarga tanqidiy munosabat bildirish zarurligi haqida o'ylashga undaydi. Bu holat asarning bir necha epizodlarida qahramonning o'z xatolarini tushunib yetishi orqali namoyon bo'ladi. Asarda tarbiyaviy mazmun beruvchi yana bir jihat qahramonning turli sinovlardan o'tish jarayonida ko'rinadi. Fantastik voqealar ichida harakat qilgan qahramon asta-sekin tajriba orttiradi va vaziyatni to'g'ri baholashni o'rganadi. Shu jihatdan qaraganda, asardagi mistik obrazlar faqat qiziqarli syujet yaratish vositasi emas, balki bolalarga hayotiy tajriba, topqirlik va ehtiyotkorlik kabi fazilatlarini anglatishga xizmat qiluvchi badiiy element sifatida namoyon bo'ladi. Demak, To'xtaboyev fantastik tasvir orqali o'quvchini o'ylashga undaydigan tarbiyaviy muhit yaratadi.

Susan Hillning "I'm the King of the Castle" asarida esa mistik kayfiyat an'anaviy fantastik obrazlar orqali emas, balki asarning umumiy psixologik muhitida namoyon bo'ladi. Asarda Edmund Hooper qahramoni o'zini boshqalardan ustun qo'yishga harakat qiladi va u tez-tez: "I'm the King of the Castle." degan iborani takrorlaydi. Ushbu jumla qahramonning o'zini hukmron deb his qilishini hamda boshqa bolaga nisbatan ruhiy bosim o'tkazishga urinayotganini ifodalaydi. Bu ibora asarda bir necha bor takrorlanib, qahramonlar o'rtasidagi psixologik qarama-qarshilikni kuchaytiradi. Shu orqali muallif bolalar o'rtasidagi ruhiy zo'rvonlikning qanday og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi. Asarda mistik kayfiyatni kuchaytiruvchi yana bir muhim tasvir qorong'i va sirli muhit orqali yaratiladi. Qahramon Kingshaw yolg'izlik va qo'rquv hissi bilan kurashar ekan, u o'zini begona muhitda qolib ketgandek his qiladi. Ushbu epizodlarda muallif psixologik qo'rquvni tasvirlash orqali o'quvchini qahramonning ruhiy holatini chuqur his qilishga undaydi.

Qiyosiy tahlil natijasida shuni ko'rishimiz mumkinki, ikkala asarda ham mistik yoki sirli tasvirlar bolalar tarbiyasiga xizmat qiladi, biroq ularning badiiy ifodalanish usuli farqlanadi. "Sariq devni minib" asarida mistik obrazlar sarguzasht va fantastik voqealar orqali berilib, o'quvchini topqirlik, ehtiyotkorlik va hayotiy tajriba haqida o'ylashga undaydi. "I'm the King of the Castle" asarida esa mistik kayfiyat psixologik muhit orqali yaratiladi va u bolani boshqalarning ruhiy holatini tushunish, zo'rvonlikning oqibatlarini anglash hamda insoniy munosabatlarda mehr va rahm-shafqat muhim ekanligini his qilishga undaydi[4]. Shu asosda aytilish mumkinki, har ikkala asarda ham mistik tasvirlar

bolalar dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. To'xtaboyev asarida mistik obrazlar ko'proq milliy fantaziya va sarguzasht ruhida ifodalansa, Susan Hill asarida ular psixologik va ramziy ma'noda talqin qilinadi. Biroq har ikkala holatda ham ushbu tasvirlar o'quvchini fikrlashga, voqealarni baholashga va muayyan ma'naviy xulosalar chiqarishga undaydi.

**Xulosa.** Olib borilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, bolalar adabiyotida mistik obrazlar muhim badiiy vositalardan biri hisoblanadi. Ular nafaqat asarning badiiy jozibasini oshiradi, balki bolalar ongiga muayyan ma'naviy va tarbiyaviy g'oyalarni yetkazishda ham muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot davomida tahlil qilingan asarlar mistik tasvirlarning turli adabiy an'analarda turlicha talqin qilinishini ko'rsatdi. Xususan, Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asarida mistik obrazlar ko'proq fantastik sarguzashtlar orqali berilib, bolalarda topqirlik, ehtiyotkorlik va hayotiy tajriba kabi

fazilatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Susan Hillning "I'm the King of the Castle" asarida esa mistik kayfiyat psixologik muhit orqali ifodalaniib, insoniy munosabatlar, rahm-shafqat va boshqalarning ruhiy holatini tushunish kabi axloqiy masalalarga e'tibor qaratiladi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek bolalar adabiyotida mistik obrazlar ko'proq xalqona fantaziya va sarguzasht unsurlari bilan bog'liq holda tasvirlansa, ingliz bolalar adabiyotida ular psixologik va ramziy ma'noda talqin qilinadi. Shunga qaramay, har ikkala adabiy an'anada ham mistik obrazlar bolalar dunyoqarashini shakllantirish hamda ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ta'sir ko'rsatishda muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Kelgusida bolalar adabiyotida mistik obrazlarning badiiy funksiyasi hamda ularning turli milliy adabiyotlarda talqin qilinish xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Bettelheim, B. The uses of enchantment: The meaning and importance of fairy tales. New York: Vintage Books, 1976.
2. Hill, S. I'm the King of the Castle. London: Penguin Books, 1970.
3. Hunt, P. Understanding children's literature. London: Routledge, 2001.
4. Karimov, B. O'zbek bolalar adabiyoti. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2008.
5. Nikolajeva, M. Children's literature comes of age. New York: Garland Publishing, 1996.
6. Propp, V. Morphology of the folktale. Austin: University of Texas Press, 1968.
7. Todorov, T. The Fantastic: A structural approach to a literary genre. New York: Cornell University Press, 1975.
8. To'xtaboyev, X. Sariq devni minib. Toshkent: Yosh gvardiya nashriyoti, 1980.
9. Yo'ldoshev, Q. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent: Akademyashr, 2016.
10. Yo'ldoshev, Q. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent: Akademyashr, 2013.
11. Zipes, J. Fairy tales and the art of subversion. New York: Routledge, 1983.
12. <https://www.britannica.com/art/childrens-literature>
13. <https://www.britannica.com/biography/Tzvetan-Todorov>
14. <https://www.britannica.com/biography/Susan-Hill>
15. <https://www.britannica.com/biography/Xudoyberdi-Tukhtaboyev>